



YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA BUYUK SARKARDALARNING HAYOTI, JASORATI VA QAHRAMONLIKLARI HAQIDAGI MA'NAVIY- MA'RIFIY ISHLAR TIZIMINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Maxmudov U.M.

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti erkin tadqiqotchi

Tayanch soʻzlar: yoshlarning taʼlim –tarbiyasida buyuk siymolar meʼrosi, Temurbeklar va Jaloliddin Manguberdi maktablari, yoshlarga yaratilgan shart-sharoitlar, mahallalarda yoshlar bilan ishlash.

Ключевые слова: наследие великих деятелей молодежного образования, школы Темурбека и Джалалуддина Мангуберди, условия, созданные для молодежи, работа с молодежью в микрорайонах.

Key words: legacy of the great figures of youth education, schools of Temurbek and Jalaluddin Manguberdi, conditions created for youth, work with youth in microdistricts.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik va maʼnaviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashni yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda xalqimizning qadimiy tarixi, buyuk ajdodlarimiz merosi va ularning harbiy sanʼatni rivojlantirishga qoʻshgan hissasini chuqur oʻrganish muhim ahamiyatga ega. [1]

Hozirgi kunda bu maʼnaviy merosdan harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik, insonarvarlik, fidoyilik, anʼanalari ruhida tarbiyalash va ularning mohiyatini yosh avlod ongi va ruhiyatiga singdirishga eʼtibor qaratilmoqda.

Milliy armiyamiz saflariga oʻz yigitlik burchini oʻtash uchun kelgan yoshlarimizga boshlangʻich tayyorgarlikdan dastlab ularga xalqimizning boy maʼnaviy merosi, madaniyati, urf-odatlarini, buyuk ajdodlarimiz va qaxramonlarimizning tarix zarvaraqlariga muhrlangan jasorati, ularni milliy ozodlik va mustaqillik yoʻlida qilgan xizmatlari hamda harbiy sanʼatni rivojlantirishdagi saʼyi harkatlarini oʻrganishdan boshlaydi. Bu esa oʻz navbatida harbiy xizmatga ilk qadam qoʻygan yoshlarda vatanparvarlik, Vatanga sadoqat, kindik qoni toʻkilgan ona zaminni himoya qilish, buyuk ajdodlarimizdan

faxrlanish va g'ururlanish tuyg'ularini oshiradi hamda kundalik faoliyatda dasturilamal bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu ishlarning davomi o'laroq ma'anviy-ma'rifiy tayyorgarlik mashg'ulotlari, buyuk ajdodlarimizning tavallud kuniga bag'ishlab o'tkaziladigan uchrashuvlar, davra suhbatlari, intellektual o'yinlar, ijodiy ishlar, badiiy kechalar, turli tanlovlar, teatr va kinolarni hozirgi kunda o'z ahamiyatga ekanligini aytish joizdir.

Amir Temurning "Temur tuzuklari" yoshlarimiz tarbiyasida milliy va umumdavlat ahamiyatga molik dasturilamaldir. Chunonchi, strategik ahamiyatga molik asarda harbiy-vatanarvarlik tarbiyaning muhim elementlari bayon etilgan. Bo'lajak Sohibqiron Movarounnahrning yagona hukmdori bo'lish, buyuk saltanat barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi, o'zining porloq istiqboliga katta umid hamda ishonch bilan qaradi va bunga erishdi ham. Uning ruhiyati nafaqat tug'ma bahodirigi va jasorati bilan, balki ayni paytda Allohga bo'lgan ishonchu e'tiqodi bilan mustahkamlangan edi.

Hozirda buyuk sarkarda davlat arbobi, Sohibqiron Amir Temurning qoldirgan boy tarixiy, ma'naviy, madaniy va ilmiy merosi nafaqat harbiy xizmatchilar hamda o'sib kelayotgan yosh avlodni ta'lim tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Sohibqironning yurt ravnaqi, xalq faroqvonligi, xalqini tinch va osuda hayot kechirishini ta'minlash uchun Armiyasiga qaratgan e'tibori, ilm-fanni rivojlantirish yo'lida olib borgan ishlari, yosh avlodni intellektual salohiyatini oshirishda keng qamrovli ishlari, shuningdek, ko'plab davlatlar bilan o'rnatgan diplomatik aloqalarini yosh avlodga namuna qilib ko'rsatishimiz mumkin.

Amir Temur nafaqat harbiy yurishlarga, balki davlatni mustahkamlash, obodonlashtirish, iqtisodni ko'tarish ishlariga ham katta e'tibor qaratgan edi, ayniqsa, shayxlar va din peshvolariga tayandi. Savdogar va hunarmandlarga imkon yaratib, tashqi va ichki savdoni yo'lga qo'ydi. Ilm-fan va san'at taraqqiyoti uchun xomiylik qildi. Natijada me'morchilik, naqqoshlik, musavvirlik yuksaldi. Samarqand dunyoning eng go'zal shaharlaridan biriga aylandi. Ko'plab shahar va qishloqlarda katta ko'lamdagi qurilish va tiklash ishlari amalga oshirildi. Bu davr Turon sivilizatsiyasining Temuriylar bosqichi sifatida e'tirof etildi. "Biz kim, Mulki Turon, Amiri Turkistonmiz. Biz kim millatlarning eng qadimi va eng ulug'i turkning bosh bo'g'inimiz", -degan so'zlari Turon hukmdori Temurbekning hayotiy maqsadi va matlabi edi.

Yurtimizda yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha olib borilayotgan islohatlar shuni ko'rsatmoqdaki buyuk sarkarda bobomizkabio'ziyashabrturgan hududni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish, hunarmandchilik va musavvirlikning eng yuqori natijalarini ko'rsatish, iml-



fanning asl egalarining mukammal ijod namunalari namoyon etish uchun barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan. Intellektual salohiyatga ega bo'lgan yoshlar ongiga buyuk ajdodlarimizning qilgan ezgu ishlarni singdirishimiz va e'tibor qaratishimiz zarur. Buning uchun dastlabki poydevorni o'sib kelayotgan yosh avlodni ota-onasi, keng jamoatchilik, mahalla faolligi, maktabgacha ta'lim muassasalari orqali ta'lim va tarbiyaga, ilm-fanga to'g'ri yo'naltirib borishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Buyuk ajdodlarimiz farzandlarning ta'lim-tarbiyasida juda katta tajriba maktabini yaratgan, sog'lom bola jismoniy va ma'naviy barkamol insondangina tug'ilishi, kelajakda jamiyatga va oilasiga foyda keltirishini ota-bobolarimiz teran anglab yetishgan.

Amir Temur bobomiz ham aynan o'zi har tomonlama yetuk va barkamol bo'lgani uchun, kelajak avlod davlat va jamiyat hayotida juda katta o'rin tutishini o'z aql ko'zi bilan avvaldan ko'ra olgan hazrati inson edi.

U avvalo farzandlarni dunyoga keltiradigan ota-onalarning ma'naviy va jisman sog'lomligini talab etgan. U ichkilik, chekish kabi zararli illatlarga qarshi kurashgan, yoshlarning yengil-yelpi hayotga o'rganishiga, qiyinchilik va mehnatu mashaqqatlarsiz hayot kechirishiga, aysh-ishratlarga berilishiga hamda benikoh farzand tug'ilishiga qarshi bo'lgan.

Har qanday jamiyatda insonlar yuksalsagina, yuksak salohiyatli, ma'rifatli, ziyoli avlod shaklsagina, avloddan avlodga o'tib kelayotgan buyuklarning ilmiy meroslarini o'rganish, uni hayotga tadbqiq etib har tomonlama rivojlanib borayotgan yoshlar olgan ilmiy va amaliy bilimlarini amalda sayqallab borgan insonlar bilan ma'naviy-axloqiy sifatlar namoyon bo'lgan o'sish kamolotida nafaqat minglab milyonlab yoshlar, insonlar, ziyoli xalq, butun boshli jamiyatda yurt ravnaqiga, xalq faravonligiga ulkan hissa qo'shuvchi yuksak bilim va salohiyatli, keng tafakkurga ega bo'lgan, o'zining yangi keng qirrali g'oyalari bilan ilm-fan ravnaqiga o'z hissasini qo'shib, innavatsion g'oyalar yaratib xalq manfaatiga xizmat qiluvchi yoshlar yurti ulug' mutafakkir bobomiz takidlaganlaridek Abu Nasr Farobiyning "Fozil odam yurti"ga asos solinsa ajab emas. Bu muqaddas zamindan ne-ne daxolar, olimlar, sarkardalar hali hamon dunyo jamiyatini lol qoldirib kelayotgan buyuk matafakkir, allomalar yetishib chiqqan. Bu ko'hna diyor o'z bag'rida buyuk astronomlarni, qomusiy olimlar, geodeziya, geografiya, algebra, tibbiyot, fizika, kimyo, falakiyot, musiqa fanlarining faylasuflarini, asarlari dunyoning o'nlab tillariga tarjima qilingan islom dunyosida hadis ilmining sultoni deya nom qozongan muhaddislar, shoh va shoirlar va bir qancha ilmiy yo'nalishlarda faoliyatlarini olib borgan serqirra donishmadlarni kamolotga yetkazgan.



O'rta Osiyoning bir necha ming yillik tarixi mobaynida ajdodlar tomonidan vatanparvarlik, fidoyilik, xalqparvarlik fazilatlarini yosh avlod ongiga singdirishga alohida e'tibor berib kelingan.

Qadimgi yozma yodgorliklar, bitiktoshlar, xalq og'zaki ijodi namunalari, dostonlar rivoyatlarda tilga olingan, tasvirlangan voqea-hodisalar, ularning ishtirokchi va qahramonlari aks ettirilgan obrazlar fikrimizning dalilidir.

Hozirgi kunda bu ma'naviy merosdan harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik, insonparvarlik, fidoyilik, an'analari ruhida tarbiyalash va ularning mohiyatini yosh avlod ongi va ruhiyatiga singdirishga e'tibor qaratilmoqda. [2]

Zahiriddin Muhammad Boburuzoqyillardavomida o'rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarashi va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo'lsa, serjilo o'zbek tilida yozilgan "Boburnoma" asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi. Uning nafis g'azal va ruboiylari turkiy she'riyatning eng nodir durdonalari, risolalari esa islom qonunshunosligi, she'riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Sharq xalqlarining ta'lim va tarbiyasida inson xulqini belgilovchi bir qancha mezonlar bo'lib, shulardan biri jamoat orasida yoshi ulug', mansabdor, ilmi va hurmatli shaxslar oldida o'zini qanday tuta bilish, ota-onani hurmat qilish, ular xizmatini so'zsiz bajo keltirish, ota-ona oldida o'zini axloqli tutish, ota-onaning ham o'z farzandi uchun mehribon, jonfido bo'lishi kerakligiga qarab baholash alohida o'rin tutgan. Bobur ijodida vatanparvarlik tuyg'usi yetakchi o'rinni egallaydi. U Vatanga bo'lgan muhabbat va sadoqat, shaxsning vatanparvarligi, yetukligi, milliy iftixori kabi fazilatlarida aks etishini ta'kidlaydi. Yuksak badiiy did, chin insoniy axloq soxibi bo'lgan Bobur qaysi shaharda, qaysi davlatda bo'lmasin, xalqlar o'rtasida vatanparvarlikni keng targ'ib etadi.

Hozirda yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda buyuk mutafakkirlarimizning faoliyati katta ahamiyat kasb etadi. Ular qoldirgan ma'naviy meros necha-necha avlodlarni ma'naviy-axloqiy kamolotga da'vat etib, yuksak vatanparvarlik ruxida tarbiyalab kelmoqda. O'sha davr allomalarimizning axloq-odob, ta'lim va tarbiya borasidagi dono fikrlari madaniyatimizni yanada ravnaq toptirishda, hozirgi yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitishda, ularni yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir. Shunday ekan, bugun yosh avlodni ajdodlarimizning mana shunday boy ma'naviy merosidan oziqlanishsa, o'zlarining ma'naviy, axloqiy va intellektual sifatlarini shakllantirishsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.



Temuriylar sulolasining vakili shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning ma'naviy merosida yoshlarni bilim olishga, odobli, axloqli bo'lishga da'vat etish g'oyasi ustun turadi. Bobur bobomizning insonlarni birodarlikka, inoqlikka, shafqatli, insofli bo'lish, Vatanni e'zozlash, ma'rifatparvarlik va axloqiy g'oyalari hozirgi davrda yosh avlodni ta'lim va tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarni vatanparvarlik tuyg'usining kuchayishiga sabab bo'luvchi buyuk srakarda, xususan, Jaloliddin Manguberdi bobomizning ko'rsatgan jasratlari ko'p asrlar o'tsa hamki, o'z qadr qimmatini va ahamiyatini yo'qotmaydi. Ular yoshlar qalbida Vatanparvarlikdek Oliy tuyg'uga xizmat qilish shijoatini jo'sh urdirib turadi. Ajdodlarimizning harbiy salohiyati tarixini o'rganish yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat tuyg'usini uyg'otishda alohida ahamiyatga ega.

Ne-ne podshohlar Chingizxonga taslim bo'lib, oyog'iga poyandozlar to'shaganida Jaloliddin unga mardonavor qarshi chiqdi, o'n bir yil davomida Turkiston, Hindiston, Eron zamin va Qofqozda kuchlarni birlashtirib, hurriyat tug'ini baland ko'tardi, poydor davlat tuzishga, mo'g'ul qo'shinlarini ketma-ket mag'lub etishga muvaffaq bo'ldi.

Vatanimizni ko'p ming yillik tarixi el-yurtimizni bosqinchi, yovuz kuchlardan himoya qilish, millatimizning erkinligi va or-nomusini asrash yo'lidagi buyuk voqealarni, bu kurashlarda jasorat va mardlik ko'rsatgan buyuk shaxslarning nomlarini asrlar davomida o'zining yorqin xotirasida saqlab kelmoqda. Jaloliddin Manguberdi-ona yurt himoyachisi, jasur sarkarda va davlat arbobi, xalqimizning Spitamen, Muqanna, Najmiddin Kubro, Amir Temur singari tarixda o'chmas iz qoldirgan milliy qahramonidir. Jaloliddin Manguberdi bor yo'g'i o'ttiz ikki yillik qisqa hayoti davomida elu yurt uchun, xalq ozodligi uchun so'nmas xizmat qilishga ulgurgan ulug' ajdodimizdir.

Sulton Jaloliddin Manguberdi o'z elining baxtu saodati uchun hayot-momot janrlarida jon fido etdi. Lekin dunyoda hech qanday xayrli ish bejiz ketmaydi. Millat ruhi, odamzotning ozodlik sari intilishi abadiydir. Oradan bir asr o'tib, sohibqiron Amir Temur Jaloliddin Manguberdi boshlagan ozodlik kurashini yangi sharoit va ulkan miqyoslarda davom ettirdi. Ona yurtimznini bosqinchilardan xalos qilib, markazlashgan qudratli davlat barpo etdi. Hayot bor ekan, davlat, el-yurt bor ekan, o'zing tug'ilib o'sgan, ota-bobolaring hoki yotgan, ertaga farzandlaring kamol topadigan tuproqning har bir qarichini muqaddas bilib, uni himoyalash, zarur bo'lsa, bu yo'lda jon fido etishga tayyor turish kerak.

Tarixi qariyb uch ming yilga boradigan, buyuk fan va madaniyat o'lkasi bo'lgan, jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan ulug' zotlar vatani

dunyoga ma'lum va mashhur. Bu yurt tengsiz allomalar, aziz-avliyolar, podshohu sarkardalar, botir va pahlavonlarni ko'p ko'rgan. Ular orasida milliy qahramonimiz Jaloliddin Manguberdining betakror nomi yulduzdek charaqlab turadi. Sulton Jaloliddin siymosi O'zbekistonning faxru g'ururidir. U bizning milliy ozodligimiz, istiqlolimizga tajovuz qilmoqchi bo'lgan har qanday yovuz kuchga qarshi tik turib kurashishga, mardonavor zarba berishga qodirligimizning tasdig'i va timsolidir. Bu bahodir zotning muborak nomi va uning ko'rsatgan qahramonliklarini yosh avlod ongiga singdirish, buyuk ajdodlarimizdan faxrlanish va g'ururlanish tuyg'ularini shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Jaloliddinning el-ulus, Vatan ozodligi va mustaqilligi yo'lidagi fidoyiligi. Mislsiz jasorati mangulikka daxldordir. Istiqlol nashidasini surayotgan mustaqil O'zbekistonda ulug' ajdodlar ruhining e'zozlanayotgani bejiz emas. Zero, anashu aziz va muqaddas Vatan oldidagi xizmatlarining, bugun biz erishgan istiqlolgacha ham buyuk ajdodlar ming xalq, yurt ozodligiga qo'shgan hissasining tan olinganidir. [3]

Mustaqillikka erishgandan keyin dastlab chorak asr davomida milliy tiklanish bilan shug'ullanishga to'g'ri keldi. Endilikda milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o'tganimizdan keyin, uchinchi Renessansga erishishni davlat rahbari strategik vazifa etib qo'ydi. Haqiqatan tarixan olganda biz ikki Renessansni boshdan kechirdik: birinchisi IX - XII asrlar, ikkinchisi XIV asr oxirgi choragi - XVI asr birinchi choragi.

Birinchi Renessansda yurtimizdan Farg'oniy, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy kabi buyuk daholar, buyuk muhaddislar - Buxoriy, Termiziy, mutakallimlar - Moturidiy va Abul Muin Nasafiy hamda boshqa atoqli dunyoviy va diniy allomalar shuuri olamni yoritdi.

Ikkinchi Renessansda - Ulug'bek, G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Navoiy, Behzod, buyuk me'morlar, bastakorlar, musavvirlar, tarixchilar chiqib, bugun ham dunyoni lol qoldirayotgan asarlar yaratdilar.

Har ikki Renessans davrida biz dunyoning ilg'or, mutaraqqiy xalqlari qatorida edik. Agar yana shunday darajaga erishmoqchi bo'lsak, Uchinchi Renessansni amalga oshirmog'imiz zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topmonidan olib borilayotgan keng ko'lamlil islohatlarda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni manzilli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish bo'yicha bir qator vazirlik va



idoralarga aniq topshiriqlar belgilab berildi. Jumladan, 2024-yilda ushbu yo‘nalishdagi ishlarni yangi sifat bosqichiga olib chiqish, yoshlarga hayotda o‘z yo‘llarini topish, adashganlarni to‘g‘ri yo‘lga qaytarish va sog‘lom hayot kechirishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishda jamoat tashkilotlari, respublika miqyosida yoshlar birlashtirildi.

Biriktirilgan yoshlar 7 toifaga ajratildi va har bir toifa yoshlari bilan samarali ishlarni tashkil etish uchun yo‘l Harita va Harakatlar rejaları ishlab chiqildi. Ushbu tadbirlar maktab o‘quvchisidan tortib oliy ma‘lumotga ega bo‘lib ishsiz yurgan yoshlarni qamrab olgan. Ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlat siyosati darajasida olib borilmoqda.

O‘zbekistonda bugun jadallik bilan kechayotgan ana shunday islohotlar, jamiyatdagi yangilanishlar mamlakatda kezayotgan uyg‘onish ruhidan dalolatdir. Uchinchi Renessans uzoq istiqbol masalasi emas. U bugun, ushbu onda jamiyatimiz, uning har bir jabhasida muttasil etilib kelayotgan real voqelikdir. Ishonchimiz komilki, yurtimizda boshlangan bu yangilanishlar izchil davom etadi va xalqimiz orzu qilgan buyuk davlat, farovon kelajak barpo etishda mustahkam poydevor bo‘ladi.

Biz buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanishimiz, g‘ururlanishimiz kerak, faqat g‘ururlanishning o‘zi yetarli emas, kelinglar, o‘zimiz ham, xuddi ular kabi, mana shu bebaho merosga o‘z hissamizni qo‘shaylik!

Yoshlarda Jaloliddin Manguberdi va Zahiriddin Muhammad Bobur haqidagi tasavvurlarni shakllantirish, bugungi kunning eng asosiy vazifalardan biri.

Tarixsiz, tarixiy shaxslarsiz kelajakka intilib bo‘lmaydi, mo‘g‘ul imperiyasining asoschisi Chingizxon aytganidek bu olamda Jalollidinga teng keladigan sarkarda yo‘q. U quruqlikda sher, suvda esa nahang kabi kurashadi deb ta‘kidlab o‘tdi. Aynan biz bugungi kun yoshlarimizga buyuk ajdodlarimiz shaxsi sifatida ko‘proq ma‘lumot bersak nur ustiga a‘lo nur bo‘ladi.

Yuqorida yurtimizda yoshlarga yaratilgan shart-sharoitlar va keng imkoniyatlarning ma‘lum bir qismlarigagina to‘xtalib o‘tdik. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo‘yicha keng qamrovli islohatlar olib borilmoqda. Har bir o‘quvchi maktab davridanoq yoshlar siyosatidan, yaratilgan imkoniyat va imtiyozlardan to‘g‘ri va unumli foydalansa oldimizga qo‘yilgan ezgu maqsadlarning bir qismiga erishgan bo‘lamiz.

Adabiyotlar:

1. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2021 y.
2. O‘zbekistonda ijtmioiy fanlar. 1999 y.



3. <https://мудофаа.уз>.
4. e-mail: ahayitbay@inbox.ru
5. https://t.me/XORAZM_MARKAZ-2021
6. https://t.me/QurilishSohasidaMMT_MARKAZ

РЕЗЮМЕ

Yoshlarda vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishda buyuk sarkardalar, mutaffakir allomalarimiz, davlat arbobi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi kabi yurtparvar, mard va jasur bo‘lish bilan bir qatorda yuksak salohiyatli, ma‘rifatli, avlodni tarbiyalashdagi o‘rni va ahamiyati. Avloddan avlodga o‘tib kelayotgan ta‘lim va tarbiya, buyuklarning ilmiy meroslarini o‘rganish orqali uni hayotga tadbiq etish, har tomonlama rivojlanib borayotgan yosh avlodni ma‘naviy-ahloqiy sifatлари, yoshlarimizga davlatimiz tomonidan bugungi kunda yaratilib berilayotgan shart-sharoitlar ijtimoiy, harbiy sohada olib borilayotgan islohatlar yuzasidan fikrlar ifodalangan.

РЕЗЮМЕ

В формировании патриотических качеств у молодежи роль и значение великих лидеров, наших мыслителей, государственного деятеля Амира Темура, Захириддина Мухаммада Бабура, Джалолиддина Мангуберди, а также смелости и отваги, в воспитании поколения с высоким потенциалом и просвещением. . Воспитание и обучение передавались из поколения в поколение, применяя их в жизни путем изучения научного наследия великих, духовно-нравственных качеств молодого поколения, развивающегося во всех аспектах, условий, созданных для нашей молодежи нашим сегодняшним государством, социальных, Военные мнения были высказаны относительно реформ, проводимых на местах.

SUMMARY

In the formation of patriotic qualities in young people, the role and importance of great leaders, our thinkers, statesman Amir Temur, Zakhiriddin Muhammad Babur, Jaloliddin Manguberdi, as well as courage and bravery, in raising a generation with high potential and enlightenment. . Education and training were passed on from generation to generation, applying them in life by studying the scientific heritage of the great, spiritual and moral qualities of the young generation, developing in all aspects, the conditions created for our youth by our current state, social, military opinions were expressed regarding the reforms, carried out locally.